



THE ESTABLISHMENT OF ECONOMIC AND CULTURAL RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN DURING THE SOVIET PERIOD

Oltinoy Dusmatova

*Basic Doctoral Student, Department of World History
Termez State University
Termez, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Afghanistan, Uzbekistan, Soviet power, V.I. Lenin, Amonullahkhan, M.A. Bobohojayev, Kabul, Soviet Uzbekistan.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article provides analytical and general conclusions about the work carried out between Uzbekistan and Afghanistan during the Soviet period, the establishment of economic and cultural relations, the history of the capabilities and promising plans of representatives of both countries, and the work carried out. The assistance and mutual cooperation of the Soviet Union and Soviet Uzbekistan, as part of its structure, during the development of Afghanistan in the 20th century are analyzed.

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON O'RTASIDA IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARNING O'RNATILISHI

Oltinoy Do'smatova

*Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti
Termiz davlat universiteti
Termiz, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Afg'oniston, O'zbekiston, Sovet hokimiyati, V.I.Lenin, Omonullaxon, M.A.Boboxo'jayev, Kobul, Sovet O'zbekistoni.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Afg'oniston davlatlari o'rtasida Sovet hokimiyati davrida olib borilgan ishlar, iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi, bunda har ikki davlat vakillarining imkoniyatlari va istiqbolli rejalari tarixi, amalga oshirilgan ishlar haqida tahliliy, umumiy xulosalar berilgan. Afg'onistonning XX asrdagi rivojlanish davrida Sovet Ittifoqi va uning tarkibidagi

Sovet O'zbekistonining yordami va o'zaro hamkorlik aloqalari tahlil qilib berilgan.

УСТАНОВЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И АФГАНИСТАНОМ В ПЕРИОД СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

Олтиной Дўсматова

Соискатель степени PhD, кафедра Всеобщей истории

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Афганистан, Узбекистан, Советская власть, В.И. Ленин, Амонуллахан, М.А. Бобоходжаев, Кабул, Советский Узбекистан.

Аннотация: В данной статье даются аналитические и обобщающие выводы о работе, проделанной между Узбекистаном и Афганистаном в советский период, установлении экономических и культурных связей, истории возможностей и перспективных планов представителей обеих стран, а также проделанной работе. Анализируются помощь и взаимное сотрудничество Советского Союза и Советского Узбекистана в его составе в период развития Афганистана в XX веке.

Kirish. Afg'oniston va O'zbekiston davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ildizi qadimda bu ikki davlatlar xalqlari bir hudud, bir makonda yashab, o'zaro qarindosh-urug'chilik aloqalariga ham ega bo'lganligi bilan xarakterlansa-da, bu aloqalar Afg'oniston davlat sifatida XVIII asrda tashkil topgandan so'ng rasmiy tus ola boshladi. Bu vaqtda O'zbekiston hududida amalda bo'lgan Buxoro amirligi bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Buxoro amirligi qulatilgandan so'ng munosabatlar Sovetlar tarkibidagi O'zbekiston davlati va Afg'oniston o'rtasida yanada rivojlantirildi.

Sovetlar hokimiyatga kelgach, afg'on-o'zbek munosabatlari tarixida yangi bosqich yuzaga keldi. Bu avvalo Afg'onistonning o'zida ham shu yillarda hokimiyatning almashishi va mamlakatda ma'rifatparvarlik va zamonaviylashtirish harakatlarining boshlanishi bilan xarakterlanadi.

1919-yil fevralida amir Habibullo o'ldirilgach, uning uchinchi o'g'li amir Omonulloxon Afg'oniston mustaqilligi uchun harakat boshladi. 1919-yil 3-mart kuni Afg'oniston davlat mustaqilligini e'lon qildi, ammo birorta kapitalistik davlatlar buni tan olmadi. 1919-yil 27-martda V.I. Lenin boshliq sovet davlatigina Afg'oniston mustaqilligini tan oldi.

Amir Omonullo 1919-yil aprel oyining boshlarida V.I. Leninga maktub yo'llab unda ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlari o'rnatishni taklif qildi. Sovet hukumati bu taklifni qabul

qilgach, aprel oyi oxirlarida Sovet Rossiyasiga Muhammad Valixon boshliq Favqulodda afgʻon missiyasi yuborildi. 1919-yil dekabrda Kobulga Y.Z. Suris boshliq sovet vakolatxonasi keldi, u afgʻon amiriga V.I. Leninning maktubini topshirdi. Shu tariqa ikki davlat oʻrtasidagi doʻstlik aloqalari kuchga kirdi.

1921-yilning 7-yanvarida Kobulga joʻnatilgan G. Dobbs yetakchiligidagi inglizlar missiyasi faoliyati bunga tamomila qarshi edi. Mazkur missiyaning asosiy vazifalaridan biri Afgʻonistonning yangi sovet davlati bilan yaqinlashishini oldini olish boʻlib, inglizlar amir Omonullaxonga katta miqdorda moddiy va qurol-aslaha yuzasidan koʻmak berishga vaʼda beradilar. Shunga qaramasdan, Omonullaxon 1921-yilning 28-fevralida sovet davlati bilan doʻstlik bitimini imzoladi.

Oʻsha vaqtda RSFSR hukumatining rahbari boʻlib turgan V.I. Lenin ikki qoʻshni davlat oʻrtasidagi yangi munosabatlarni boshlab berdi. V.I. Lenin 1921-yilgi shartnoma tuzilganligi munosabati bilan afgʻon ozodlik harakatining rahbarlariga 1921-yilning oxirida yoʻllagan tabrik xatida, endilikda Sovet Rossiyasi Afgʻonistonning Shimoliy qoʻshnisi ekanligini aytib, Sovet Rossiyasi “har ikkala xalqning baxt-saodati yoʻlida oliy Afgʻon davlatining abadiy birinchi doʻsti boʻlib qoladi” deydi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Madaniy, ilmiy aloqalar xususida soʻz borganda Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasining muxbir aʼzosi G.N. Pugachenkova rahbarligidagi sovet arxeologiya ekspeditsiyasi keyingi bir necha yil davomida Shimoliy Afgʻonistonda (Mozori-Sharif shahri yaqinidagi Balx vohasida) ish olib bordilar. Bu ekspeditsiya “Kushon muammosi” deb nomlangan muammoni hal qilish bilan shugʻullanib. Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Shimoliy Hindiston xalqlarining eramizning III asrigacha boʻlgan davrdagi tarixini toʻgʻri yoritishga xizmat qilgan. Ekspeditsiya ishida sovet arxeolog olimlari bilan bir qatorda Afgʻoniston Arxeologiya institutining yosh ilmiy xodimlari ham ishtirok etishgan. Sovet arxeolog olimlari oʻzlarining afgʻon hamkasblari bilan birgalikda mamlakat Shimoliy viloyatlarining birinchi arxeologik atlasini tuzib chiqdilar. Bu atlasga ilgari fanga nomaʼlum boʻlgan 300 ga yaqin arxeologik yodgorliklar kiritildi.

Afgʻoniston iqtisodiyoti va madaniyatining xilma-xil muammolarini ishlab chiqishda Oʻzbekiston olimlari katta ishlar olib borishgan, bir qator asarlar yozishgan. “Afgʻoniston sanʼati”, “Afgʻoniston ekonomika va madaniyatining ravnaq topishi” (1956-1960-yillar), “XVIII asrning 2-yarmi va XX asr boshida rus-afgʻon savdo-iqtisodiy aloqalari”, “Afgʻonistonning yangi tarixi boʻyicha ocherklar”, “Oʻrta Osiyo va Oʻrta Sharqda ingliz siyosatining barbod boʻlishi”, “Afgʻonistonning mustaqillik uchun kurashi” va boshqa asarlar shular jumlasidandir.

Sovet kishilarining qoʻshni mamlakat xalqlari madaniyati bilan tanishuvga boʻlgan qiziqishining yana bir isboti Afgʻoniston adabiyoti va uning davlat tillari: pushtu va fors (dari) tillarining respublikamiz maktablarida va V.I. Lenin nomidagi Toshkent davlat universiteti Sharq

fakultetida o'qitilishidir. ToshDU Sharq fakultetining ko'pgina talaba va o'qituvchilari Kobul universitetida tajribadan o'tib, bu fakultetni tugatganlardan bir gruppasi Afg'onistonning oliy o'quv yurtlarida tarjimon, mamlakatning Sovet Ittifoqi yordami bilan qurilayotgan turli qurilish obyektlarida ishlaganlar.

Sovet olimlarining bu mamlakat tarixi, ekonomikasi va madaniyatiga bag'ishlangan asarlari Afg'onistonda rus tilidan tarjima qilingan. Masalan, o'zbek olimlaridan M.A. Boboxo'jayevning "XIX asrning 80-90-yillarida rus-afg'on savdo aloqalari", Orif Usmonning "Xatak qabilasi" maqolalari 1969-yilda "Afg'oniston" jurnalida ingliz tilida bosilib chiqdi.

Muhokama. Sovet-afg'on do'stligi va hamkorligini mustahkamlashda Sovet O'zbekistoni katta rol o'ynaydi. Afg'oniston hukumati tomonidan mustaqillik e'lon qilinishi bilanoq, Turkiston sho'rolar jumhuriyati o'zining janubiy qo'shnisi bilan darhol do'stlik munosabatlari o'rnatdi. 1919-yil mayda Turkiston sho'rolar jumhuriyati Afg'onistonga o'zining rasmiy vakilini yubordi. Moskva va Yevropa mamlakatlariga borayotgan afg'on Favqulodda missiyasi o'sha yili 4-iyunda Toshkentga keldi. Missiya bu yerda afg'on bosh konsulxonasini ochdi.

1920-yil 20-sentabrda Buxoro xalq sho'rolar Jumhuriyati afg'on hukumatiga maxsus noma bilan murojaat qilib, unda Buxoroda Sovet hokimiyatining g'alaba qilganini bildirdi va O'rta Osiyoning yosh Sho'rolar jumhuriyati bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishni taklif etdi. Afg'oniston hukumati bu taklifni qabul qildi va o'sha yilning dekabrda Buxoroga favqulodda elchi yubordi. 1921-yil yanvarda Afg'onistonda BXSHJ favqulodda elchixonasi ish boshladi.

Afg'oniston – XX asrning 20-yillari o'rtalarida Sovet Ittifoqidan mamlakat milliy iqtisodiyotini va madaniyatini rivojlantirishda texnikaviy-iqtisodiy yordam ola boshlagan birinchi xorijiy Sharq mamlakatidir. O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi natijasida 1924-yilda O'zSSR tashkil topgandan keyin O'zbekiston va Afg'oniston xalqlari o'rtasidagi do'stlik yanada ravnaq topishda, mustahkamlanishda davom etdi. 1925-yilda Hirotidagi SSSR elchixonasi Afg'onistonning muhim qishloq xo'jalik ekini – paxta hosilini oshirish maqsadida O'zbekistonning turli rayonlarida olib borilgan paxtaning eng yaxshi urug'lik navlari bilan yordam berdi. Hirotida tajriba-namuna uchastkasi tashkil etilib, unda sovet mutaxassislari afg'on dehqonlariga O'zbekistondan olib borgan urug'lik hosilini namoyish qildilar.

Sovet Ittifoqi va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari yildan yilga o'sib bordi. 1927-1928-yillardayoq SSSR Afg'oniston tashqi savdosida salmoqli o'rin egallagan edi. Sovet savdo siyosati Sharq mamlakatlariga doimiy iqtisodiy yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. 1924-1927-yillarda sovet mutaxassislari yordami bilan Kushka-Hirot-Qandahor hamda Kobul-Mozori Sharif liniyalarida telefon-telegraf aloqasi o'rnatildi. 1927-1928-yillarda esa Hirotida paxta tozalash zavodi va elektrostansiya qurildi.

Natijalar. 1937-1939-yillar davomida Afgʻonistonda SSSRning yordamida bir qancha paxta tozalovchi korxonalar qurildi. Bular orasida eng kattasi Qunduzda qurilgan paxta tozalash zavodi boʻlib, unda yogʻ, iroqi sovun, kir sovun va boshqa idish-tovoq, asboblarni taʼmirlovchi mustaqil alohida sexlar bor edi.

1935-1939-yillarda sovet-afgʻon shartnomasi tuzilib, bu shartnomaga asosan Sovet Ittifoqi Afgʻonistonga qishloq xoʻjalik zararkunandalariga va gʻoʻza kasalliklariga qarshi kurashda yordam koʻrsatib, bu ish uchun kerakli apparatlar va mahsulotlar ajratdi.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida sovet mutaxassislari Afgʻonistonga chorva mollari oʻrtasida tarqalgan oʻlat kasaliga qarshi kurashda, shuningdek, Kobulda tashkil etilgan veterinariya stansiyasida ishlash uchun afgʻon zootexniklarining birinchi otryadini tayyorlashda yaqindan yordam berdilar. 1943-yilda Afgʻoniston olimlari delegatsiyasi V.I.Lenin nomidagi Toshkent davlat universitetining 25 yillik tantanasida ishtirok etdi. Ali Ahmad, Kohzod va boshqa afgʻon olimlari 1948-yilda ulugʻ oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan Oʻzbekistonga keldilar.

Oʻzbekiston va Afgʻoniston oʻrtasidagi doʻstlik aloqalari, ayniqsa, XX asrning 50-yillaridan boshlab ravnaq topdi. Sovet-afgʻon tashqi siyosiy, iqtisodiy hamkorligining ancha kengayib, mustahkamlanib borishi, Afgʻoniston iqtisodiy va madaniy rivojlanishi besh yillik rejalarini bajarishda Sovet Ittifoqining har tomonlama yordami oʻzaro aloqalarning tobora oʻsishiga sabab boʻldi.

1973-yil afgʻon xalqi hayotida katta oʻzgarish roʻy berdi – Afgʻoniston Respublikasiga asos solindi. Yangi respublikaning birinchi prezidenti lavozimini Muhammad Dovud egalladi. Sovet hukumati Afgʻoniston Respublikasini birinchi boʻlib tan olganligi toʻgʻrisidagi xabarni eʼlon qilganda, “Bu akt bilan, - deb yozdi “Kobul Tayms”, - Sovet hukumati va sovet xalqi oʻz doʻstligini va oʻz irodasini namoyish qildi... Sovet hukumati Afgʻoniston mustaqilligini tan olganligini jahonda birinchi boʻlib eʼlon qilgan edi, endilikda esa SSSR Afgʻoniston Respublikasini birinchi boʻlib rasmiy ravishda tan oldi”.

Afgʻoniston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning besh yillik rejalarini muvaffaqiyatli bajarish ishida Sovet Ittifoqi unga moliyaviy-iqtisodiy hamda texnikaviy yordamlarni koʻp miqdorda berib turish bilan birga neft, gaz va boshqa foydali qazilmalarni topish uchun geologiya-qidirish, geofizika va parmalash ishlarini oʻtkazishda ham yordam berib keldi. Bu esa Afgʻoniston xalq xoʻjaligi uchun juda katta ahamiyatga ega boʻldi.

Sovet mutaxassislari Afgʻonistondagi hamkasblari bilan hamkorlikda ishlab, koʻp miqdorda tabiiy gaz, neft, temir va mis rudalari, oltin, ftor shpati, slyuda, simob, barit va boshqa koʻpgina foydali qazilmalarning zaxiralari borligini aniqlab berdilar. SSSRga tabiiy gaz joʻnatish Afgʻoniston uchun alohida katta ahamiyatga ega boʻlmoqda. Afgʻonistondan Sovet Ittifoqiga har

yili 3 mlrd m³ga yaqin gaz yuborayotgan bo'lsa, 1967-yildan 1975-yilgacha bo'lgan davr ichida esa SSSRga hammasi bo'lib 17 mlrd m³ dan ko'proq gaz yetkazib berildi.

Xulosa. Sovet Ittifoqi Afg'oniston iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishning besh yillik rejalarini amalga oshirishga ko'maklashish bilan avvalo mamlakat xalq xo'jaligida davlat sektorini rivojlantirishga va mustahkamlashga, sanoat ishlab chiqarishining yangi tarmoqlarini (gaz, kimyo, metall ishlash, qurilish sanoati va shu kabilarni) barpo qilishga, shuningdek, mamlakatda energetikani, qishloq xo'jaligini, kommunikatsiyalarni rivojlantirishga yordam berib kelgan. 1974-yilda Afg'onistonda ishlab chiqarilgan mahsulotning 60 % dan ko'prog'ini davlat sektorining korxonalari (SSSR yordami bilan qurilgan korxonalar) tayyorlab bergan.

O'zaro manfaatli texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikni va savdo aloqalarini kengaytirishga harakat qilish bilan birga Sovet hukumati qo'shni mamlakatlar bilan, shu jumladan Afg'oniston bilan ham madaniy aloqalarni kengaytirishga va mustahkamlashga katta ahamiyat berib keldi. Bunday aloqalar ikki mamlakat xalqlarining fan va madaniyat muvaffaqiyatlaridan muntazam ravishda bahramand bo'lib turishlariga va ular o'rtasida hamjihatlik va do'stlikni mustahkamlashga yordam berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sovetlar davrida Afg'oniston davlati o'zining rivojlanish tendensiyalari bo'yicha eng yaxshi ishlarni amalga oshirdi va bu mamlakatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi, deb ayta olamiz. Bu jarayonlar xilma-xil sohalar bo'yicha olib borilgani va ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan davlatning rivojlanishiga xizmat qilgani quvonarli hol albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Д.Давыдов. Полвека советско-афганского сотрудничества в развитии сельского хозяйства Афганистана. В кн: «Полвека мирного сотрудничества», С.128-129,
2. Boboxo'jayev M.A. Afg'oniston – janubiy qo'shnimiz. T.: “Fan” nashriyoti. 1967. B.62-81.
3. Э. Мкрытчев. В.Юрдов. Кўрсатилган манба. 17-бет. И.Капрамов. Экономическое и техническое содействие СССР зарубежным странам. С.17.
4. «За рубежом», № 4 (689), 26 июля 1973
5. Mannonov A.M., Abdullaev N.A., Rashidov R.R. “Afg'oniston tarixi. T.,2018. B.159-176.
6. M.A.Boboxo'jaev. O'zbekiston va Afg'oniston. T.: “Fan” nashriyoti. 1970. B.3-31.
7. Pikulin M. “Sovet Ittifoqi va uning janubiy qo'shnilari” (Eron, Afg'oniston, Turkiya) T.:“Fan”, 1976. B.56.
8. Ю.Булах. СССР – Афганистан. Торговые связи, «Внешняя торговля». 1975. № 7. С.13, 15.